

Qon plazmasidagi bilirubinni reagentsiz baholash uchun fotoelektrik kalorimetr

2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutida "Qon plazmasidagi bilirubinni reagentsiz baholash uchun fotoelektrik kalorimetr" qurilmasi ishlab chiqildi.



Mobil qurilma ekspress metod asosida qon plazmasidagi bilirubinning umumiy miqdorini aniqlash imkonini beradi. Hozirda qurilma Toshkent shahar 4-son klinik kasalxonasida va ko'p tarmoqli "Happy life" klinikasida laboratoriya sinovlaridan o'tmoqda. Qurilma uchun baholash jarayonini avtomatlashtirish va aniqlangan natijalarni xotirada saqlash maqsadida kompyuter programma mahsulotlari ishlab chiqilgan hamda registratsiya qilingan. Yaratilgan qurilmani moliyalashtirish maqsadida ishlanma "INNOWEEK-2020" online formatidagi innovatsion g'oyalar haftaligida namoyish etildi.